



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI
VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALINING
BUYRUG‘I**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universitetining 2026-yil 11-fevraldagi 181-01-sonli buyrug‘ida belgilangan
topshiriqlar ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-aprelda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Farmonining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Amaliy chora-tadbirlar dasturi”ning 24.2-bandi va Raqamli texnologiyalar vazirligining 2026-yil 19-yanvardagi 3/11-son buyrug‘i hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2026-yil 11-fevraldagi 181-01-sonli buyrug‘ida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Filial direktor o‘rinbosarlari fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari ushbu buyruqni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha SIYOSATI 1-ilovaga muvofiq;
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyati 2-ilovaga muvofiq;
- “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom 3-ilovaga muvofiq;
- Filial aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq
- Filial xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq
- Filial kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq

- Filialga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7-ilova muvofiq
 - Filial korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati 8-ilovaga muvofiq;
 - Filial korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom 9-ilovaga muvofiq;
 - Filiali xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglament 10-ilovaga muvofiq;
 - Filialda davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi 11-ilovaga muvofiq;
 - Filial tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish to'g'risidagi tartibi 12-ilovaga muvofiq;
 - Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleans nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'ining lavozim yo'riqnomasi 13-ilovaga muvofiq
 - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi lavozimlariga malaka talablari 14-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.
3. Mazkur buyruq bajarilishi yuzasidan nazorati Yoshlar masalalari va ma'naviy-m'arifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari O.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

Filial direktori



Z. Karshiyev